




[ch] tovushi – undosh tovush. Talaffuzida tishlar bir-biriga yaqinlashadi va tilning oʻrta qismi tanglayga koʻtariladi.



33

Chch

Choʻmich, choynak va chelak, “Ch”dan boshlanar, qarang!
Eʼtibor berib koʻring,
Belgiga “h”dir koʻmak.



	a	o	i	u	oʻ	e
ch	cha	cho	chi	chu	choʻ	che

chang
choy
chim
chit

cha-yon
cho-ra
chi-nor
chit-tak

chaq-moq
che-lak
chi-roy-li
chu-qur

cha-qi-riq
che-chak
chi-girt-ka
chu-mo-li



Chorvoq, Chimyon, Chortoq, Chirchiq soʻzlari nima uchun bosh harf bilan yoziladi?



Chimyon togʻi

Dam o-lish ku-ni o-i-la-miz bi-lan bir-ga Chimyon to-gʻi-ga chiq-dik. U yer-da qor koʻp e-di. A-kam chan-gʻi-da, men cha-na-da ma-za qi-lib uch-dik. Togʻ ha-vo-si bar-cha-miz-ga yoq-di.

